

SHAXMAT-BU MIYA GRAMMATIKASI.*Fozilov Tohirbek Luqmonjon o'g'li**Ilmiy rahbar: N.A.Karimova**Andijon davlat chettillar institute roman vaslavyyantillar fakulteti nemis
tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasitalabasi (talabasi)***Annotatsiya:**

Shatranjgako‘pmash’ufedi. El birilikilao‘ynasa, ul ikkiilikbilao‘ynaredi. Har nechako‘nglitar, o‘ynaredi”, deb yozadibuyukbobomiz “Boburnoma”da.

Kalit so’zlar;

Shoh jangi, championat, yuksak, shatranj, mantiqiy fikrlash, variant, qoyin vaziyat, mantiqiy yechim, raqib,strategiya.

Shaxmat qadimgi sharq malakatlari ya’ni Hindiston bundan bir yarim ming oldin paydo bo’lgan. Uning dastlabki nomi Shohjangi deb yomlangan. Shaxmatni hozir kundagi shakli Yevropada rivojlangan. Hozirgi kunda shaxmat buyicha jahon chenpionatlari ham bo’lib utadi. Yaqinda Hindistonda bo’lib o’tgan chenpionatda ham yurtimiz Nodirbek Abdusattorov faxrli 1-o’rinni olib keldi. Bundan tashqari juda kup ham yurtdoshlarimiz ko’plab yutuqlarga erishmoqda. Ha mana minglab yillar o’rtasaham sharq mamlakatlari o’z iqtidorini ko’rsatmoqda. Ushbu yutug`imiz shuni anglatadikiy sharq mamlakatlari ma`naviyati Yevropa mintaqisi manaviyatidan azaldan kuchliy bo’lib kelgan. Faqat shahmat emas juda ko’p sohalarda ham misol uchun Al- Xorazimiyl algebra sohasiga qo’shgan hissasi bo’lmaganda hozirgi kompuyuterlar ham bo’lmasedi . Abu Ali Ibn Sino tibbiyot sahosida qo’shgan hissalari bo’lmaganda tibbiyot bu darajaga yetib kela olmasdi. Al- Farg’oniy Nil daryosini bosimini o’lchamganida hozirgi kunlarda Misrliklar bu darajaga yetib kelmasedi. Alisher Navoiy serqirra iste’dod sohibi sifatida shatranj(shaxmat)ni ham mahorat bilan o‘ynagan, bu qadimiy o‘yining nazariy jihatlaridan yaxshi xabardor bo’lgan. Ayniqsa, Amir Temur davrida saroyda

yuksak doiralarda bu o‘yin keng urf bo‘lgan. Sohibqironning o‘zi shatranjni mahorat bilan o‘ynagan, uning bilim donlarini saroyga taklif etgan. Bu haqda tarixchi Ibn Arab shohi shunday yozadi: “(Amir Temur) o‘z fikrini peshlash maqsadida muttasil shatranj o‘ynardi. Uning himmati kichik shatranj (o‘ynash)dan oily bo‘lib, katta shatranj o‘ynardi. Bu shatranj taxtasining eni o‘n bir, bo‘yi o‘n(xona)dan iborat edi... (Amir Temur) Samarqandga faqih olimlardan mavlono Abdumalikni olib kelganedi. U “Hidoya” sohibi(Burhoniddin Marg‘inoniy)ning avlodidan bo‘lib, mudarrislikqilar, shatranjva nard(o‘yinlari)dan ta’lim beraredi, she’r ham yozar edi... Shatranjchilardan yana Muhammad ibn Aqiyl al-Xaymiva Zayn al-Yazdiy va boshqalar bor edi. Shatranjchilarning allomasi – fiqhchi, hadis shunos olim Alouddin at-Tabriziyedi. U Zayn al-Yazdiyga ortiqcha bir piyoda, Ibn Aqiylga esa ortiqcha bir ot qo‘yar edi va ular dang‘ olib chiqardi. Sohib qiron Alouddinga: “Men jahondorlik bobida yagona bo‘lganim kabi sen ham shatranj olamida tengi yo‘q san”, derdi... Uning o‘yin paytidagi sifatlaridan biri shu ediki, o‘yin vaqtida u hech o‘ylab o‘tirmas, raqibi uzoq fikrlab yurish qilganidan keyin shu zahoti yurib qo‘yardi. Bir vaqtning o‘zida u ikki raqib bilan g‘oyibona o‘ynar, taxtaga qaramasdan o‘z tomonida qanday donalar va raqiblari tomonida qanday donalar borligini bilardi. U Amir Temur bilan katta shatranjda o‘ynar edi”. Mazkur an’analar Alisher Navoiy va temuriy hukmdor – Husayn Boyqaro davrida ham davom ettirildi. Xurosonda, ayniqsa, Hirotda san’at va madaniyatning ko‘pgina sohalari qatori bir qancha sport turlari, xususan, kurash va shatranj katta ravnaq topgan edi. Mana shu dalillardan kelib chiqib men tilshunos olim,jonkuyar ustozim,nafaqat olim balkim Shahmat oyini ustasi yuqorida keltirgan misollarimga yaqqol namunasi professor M.E.Umarhojaeyni ham izdoshi bo`lish orzuimni aytib o`tmochiman. Ustozimning ta`limga qoshgan kotta hissalari va uzlusiz ta`lim haqidagi takliflaridan kuch olib shahmat oyinini darslik sifatida boshlangich sinfdan kirtilishini kerak va ma`naviy yuksalishimiz uchun muhim ahamiyatga ega deb hisoblayman. Shuni bilamizkiy Shaxmat o‘ynash mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Shaxmat – aqllarjangi. O'yinchilar g'alabaga olib keladigan eng muvaffaqiyatli strategiya uchun kurashadilar. Bola taxtadao 'tirganda, uning vazifasi vaziyatni tezda baholash, variantlarni tanlash, mumkin bo'lgan natijalarni hisoblash, ijobiy va salbiy tomonlarini tortishdir. Va shuning uchun har bir harakat. Avvaliga bu oson bo'lmaydi, lekin qancha ko'p shaxmat o'yinlari ortda qolsa, miya ratsional o'yinlarni tahlil qilishga va qabul qilishga shunchalik tez ko'nikadi. Shaxmat o'ynagani sari qiyin vaziyatlarni yaxshiroq hal qilishadi. Agar muammo yuzaga kelsa, ular his-tuyg'ularga berilmaydi, balki darhol uning mantiqi yechimini izlay boshlaydi. Bu shaxmat tajribasiga ega odamning boshqalardan ustunligi.

Shaxmatning bola rivojlanishi uchun qiladigan ishlaridan biri bu o'yinchilarni yaxshi psixolog bo'lishga o'rgatishdir. O'yin davomida raqibning tana tili va mimikasini kuzatish muhimdir. Shunday qilib, bola raqibning imkoniyatlari tugashini tushunadi, u burchakka qo'yilgan yoki o'z strategiyasidan shubhalansa va durangga rozi bo'lishga tayyor. Bu mahorat shaxmat o'ynash tajribasi bilan birga keladi va ko'plab maktab ko'nikmalaridan ko'ra bolalar hayoti uchun foydali bo'ladi. Shaxmat shunday o'yinki unda belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yinchi qoidalarni ozi yaratadi va bir maqsad yo'lida harakat qiladi. Ya'ni Shohni mat qilishni haraktida bo'ladi. Bu esa bolani harqanday sharoitda yo'l topa olishiga olib keladi. Bola o'ylaydi va to'htovsiz maqsadi tomon intilishga harakat qiladi. Agarda maktab dasturiga shaxmat darsligi ham qo'shilsa , bola tez fikrlashga hammadan ham ko'ra ko'proq bir maqsad tamon iltilishiga har narsani o'ylab qaror qilishiga ko'makdosh bo'la oladi. Bunday bollar kelajakda har qanday sohada oz yutuqlariga erishishga kafil bo'la oladi. Jonajon yurtimiz O'zbekistonga aynan manashu yoshlar juda ko'plab yutuqlar olib kelishadi. Ha yana manlakatimiz dunyo miqqiyosida oz o'rnnini qaytarib olishiga kafolat beraman. Qandimda shohlar o'z sarkardalariga va farzandlariga shaxmat o'rganishiga majburlashgan, chunkiy shaxmat ham jangavor taktika hamda alqmaskanidir. Demak shaxmatbizga har sohada suv va hafo kabi zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

Oybek “ Navoiy” ramani,

Tarix darsliklaridan (5,6,7) ,

Pirunqul Qodirov “ Yulduzliy tunlar”

Zahridin Muhammad Bobur “ Boburnoma” asari

Amir Temurni “ Termur tuzuklari”

Sobirovna, U. M., & Sharifjon, P. O. (2023). Choosing Organizational Forms of Education in the Effective Organization of Technology Courses. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(2), 77-81.